# Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
*(2021- yil yanvar-fevral)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yil yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2 665,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 104,0 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (93,7 %) ni tashkil etdi.







***B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 3,0 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining - 6,7 %ga hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 10,3 %ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 17,2 %ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *%da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yanvar-fevral oylari, %da )*







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Chaqiq tosh, ming t.** | 80,9 | 40,2 | -40,7 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat
## Yanvar-fevral oylarida




2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 496,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,7 %ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *%da*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 %ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida - 0,7 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 14,8 % (20,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 12,4 % (10,9 %) va quyi texnologiyalisi – 65,9 % (62,0 %) ni tashkil etdi.

### Yuqori texnologiyali

Ulushi *%da*

0,7 — 2020- y.

0,6 — 2021- y.

### O‘rta-yuqori texnologiyali

Ulushi *%da*

20,4 — 2020- y.

14,8 — 2021- y.

### O‘rta-quyi texnologiyali

Ulushi *%da*

10,9 — 2020- y.

12,4 — 2021- y.

### Quyi texnologiyali

Ulushi *%da*

62,0 — 2020- y.

65,9 — 2021- y.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,8 % (2020-yil fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 111,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 41,5 % (2020-yil fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 102,0 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,1 % (2020-yil fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 111,5 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,4 % (2020-yil fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 58,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,0 % (2020-yil fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 70,5 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati, *%da*

2021- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 9,2 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 2,5 martaga o‘sgan), 29,6 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (10,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, *%da*

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni** | **O‘simlik yog‘i (tozalangan)** | **Aroq**




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** ming tonna | 4,5 | 5,2 | 0,7 |
| **Aroq –** ming litr 100 % spirt | 41,1 | 58,2 | 17,1 |
| **Konyak spirti –** ming litr 100 % spirt | 38,3 | 160,2 | 121,9 |
| **Vino,** ming litr | 229,5 | 193,6 | -35,9 |
| **Un,** ming tonna | 26,7 | 29,6 | 2,9 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan),** ming tonna | 3,6 | 9,0 | 5,4 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 115,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (4,3 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,6 martaga pasayishi kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*(yanvar-fevral oylari, %da )*






## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** mln.kVt/s | 74,4 | 73,5 | -0,9 |
| **Issiqlik energiyasi,** ming gkal | 231,9 | 200,0 | 46,4 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
*(yanvar-fevral oylari, %da )*

**2020- yil %da**




**2021- yil %da**




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** mlrd.so‘m | 8,9 | 16,9 | 8,0 |
| **Oqava suvlarni shlami,** mlrd.so‘m | 2,1 | 6,5 | 4,4 |
| **Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd. so’m | 3,4 | 3,9 | 0,5 |
| **To‘qimachilik chiqindilari,** tonna | 13,5 | 7,6 | 5,9 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo’yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 89,9 %ga, oqava suvlarni ishlami 3,1 martaga hamda qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 17,7 %ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 827,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 10,1 %ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 68,6 %ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,0 % (2020- yil fevral oyida 1,0 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 39,1 %ni, shuningdek, Urgut tumani 14,3 %ni, Toyloq tumani 10,3 %ni, Samarqand tumani 8,3 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o‘sish sur’ati (110,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Ishtixon (373,8 %), Toyloq (179,6 %), Bulung’ur (118,4 %), Samarqand (118,1 %), Narpay (111,5 %) hamda Urgut (109,8 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-fevral oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Samarqand sh. | 715,5 | 39,1 | 101,5 |
| Narpay | 46,5 | 2,5 | 111,5 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 38,4 | 2,1 | 72,4 |
| Payariq | 27,6 | 1,5 | 99,5 |
| Oqdaryo | 38,7 | 2,1 | 99,6 |
| Pastdarg‘om | 66,1 | 3,6 | 104,2 |
| Bulung‘ur | 45,2 | 2,5 | 118,1 |
| Paxtachi | 45,9 | 2,5 | 102,4 |
| Jomboy | 115,2 | 6,3 | 99,8 |
| Samarqand | 152,5 | 8,3 | 118,5 |
| Ishtixon | 36,1 | 2,0 | 373,4 |
| Nurobod | 14,4 | 0,8 | 100,5 |
| Kattaqo‘rg‘on | 30,7 | 1,7 | 99,1 |
| Urgut | 261,0 | 14,3 | 109,9 |
| Qo‘shrabot | 6,0 | 0,3 | 99,4 |
| Toyloq | 188,0 | 10,3 | 179,6 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 39,2 %ni, shuningdek, Urgut tumani 14,5 %ni, Toyloq tumani 9,0 %ni hamda Samarqand tumani 8,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Ishtixon (388,4 %), Toyloq (184,2 %), Bulung‘ur (140,7 %) hamda Samarqand (137,0 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Samarqand sh. | 444.2 | 39.2 | 90.3 |
| Narpay | 27.7 | 2.4 | 111.6 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 20,4 | 1,8 | 73,4 |
| Payariq | 16,4 | 1,4 | 152,1 |
| Oqdaryo | 23,4 | 2,1 | 86,9 |
| Pastdarg‘om | 40,2 | 3,6 | 104,7 |
| Bulung‘ur | 32,2 | 2,8 | 140,7 |
| Paxtachi | 39,7 | 3,5 | 103,2 |
| Jomboy | 68,1 | 6,0 | 100,5 |
| Samarqand | 96,4 | 8,5 | 137,0 |
| Ishtixon | 24,1 | 2,1 | 388,4 |
| Nurobod | 8,0 | 0,7 | 102,0 |
| Kattaqo‘rg‘on | 20,9 | 1,8 | 96,4 |
| Urgut | 163,9 | 14,5 | 106,2 |
| Qo’shrabot | 4,6 | 0,4 | 101,7 |
| Toyloq | 102,2 | 9,0 | 184,2 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 38,3 %ni, shuningdek, Urgut tumani 14,4 %ni, Toyloq tumani esa 12,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Ishtixon tumani (347,5 %), Toyloq tumani (175,6 %) hamda Samarqand shaxrida (129,5 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-fevral oyida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Samarqand sh | 259,2 | 38,3 | 128,4 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 18,0 | 2,7 | 71,3 |
| Oqdaryo | 15,3 | 2,3 | 129,5 |
| Bulung‘ur | 12,2 | 1,8 | 83,6 |
| Jomboy | 45,7 | 6,8 | 98,0 |
| Ishtixon | 12,0 | 1,8 | 347,5 |
| Kattaqo‘rg‘on | 9,7 | 1,4 | 106,0 |
| Qo‘shrabot | 1,4 | 0,2 | 92,7 |
| Narpay | 18,8 | 2,8 | 111,4 |
| Payariq | 11,2 | 1,7 | 66,1 |
| Pastdarg‘om | 25,9 | 3,8 | 103,5 |
| Paxtachi | 6,2 | 0,9 | 99,0 |
| Samarqand | 52,9 | 7,8 | 94,4 |
| Nurobod | 6,4 | 0,9 | 97,3 |
| Urgut | 97,2 | 14,4 | 116,5 |
| Toyloq | 84,5 | 12,5 | 175,6 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1110,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 41,7 %ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Viloyat | 2665,4 | 100,0 | 104,0 |
| Samarqand sh. | 1243,9 | 46,7 | 103,1 |
| Narpay | 73,2 | 2,7 | 72,7 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 49,0 | 1,8 | 80,2 |
| Payariq | 28,8 | 1,1 | 85,9 |
| Oqdaryo | 45,5 | 1,7 | 91,6 |
| Pastdarg‘om | 87,5 | 3,3 | 102,3 |
| Bulung‘ur | 46,8 | 1,8 | 109,1 |
| Paxtachi | 55,1 | 2,1 | 104,3 |
| Jomboy | 229,1 | 8,6 | 76,9 |
| Samarqand | 182,1 | 6,8 | 108,6 |
| Ishtixon | 73,7 | 2,8 | 148,1 |
| Nurobod | 17,7 | 0,7 | 112,7 |
| Kattaqo‘rg‘on | 69,4 | 2,6 | 119,5 |
| Urgut | 267,9 | 10,1 | 108,7 |
| Qo‘shrabot | 6,2 | 0,2 | 106,6 |
| Toyloq | 189,6 | 7,1 | 124,7 |

## Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Ishtixon (2020- yil fevral oyiga nisbatan 148,1 %), Toyloq (124,7 %), Kattaqo‘rg‘on (119,5 %), Nurobod (112,7 %) hamda Bulung‘ur (109,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

| Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *%da* | Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, %da |
|---|---|




## Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 46,7 %i), hamda Urgut (10,1 %), Jomboy (8,6 %) Toyloq (7,1 %),Samarqand (6,8 %), va tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Qo‘shrabot (0,2 %) hamda Nurobod (0,7 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (2 265,3 ming so‘m), Jomboy tumani (1316,8 ming so‘m), Toyloq tumani (934,8 ming so‘m) va Samarqand tumani (716,9 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (681,3 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Bu borada eng past ko‘rsatkich Qo‘shrabot (46,5 ming so‘m), Nurobod (117,0 ming so‘m), Payariq (114,1 ming so‘m) va Kattaqo‘rg‘on (252,9 ming so‘m) tumanlarida ko‘rsatilmoqda.

# Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Viloyat | 681,3 | 467,2 |
| Samarqand sh. | 2265,3 | 1303,0 |
| Narpay | 342,3 | 217,5 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 543,7 | 425,8 |
| Payariq | 114,1 | 109,4 |
| Oqdaryo | 284,2 | 241,5 |
| Pastdarg‘om | 245,4 | 185,3 |
| Bulung‘ur | 249,0 | 240,8 |
| Paxtachi | 380,2 | 317,0 |
| Jomboy | 1316,8 | 662,3 |
| Samarqand | 716,9 | 600,4 |
| Ishtixon | 288,2 | 141,1 |
| Nurobod | 117,0 | 95,2 |
| Kattaqo‘rg‘on | 252,9 | 111,7 |
| Urgut | 522,2 | 508,8 |
| Qo‘shrabot | 46,5 | 45,4 |
| Toyloq | 934,8 | 927,0 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida, %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1087,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,8 %ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oqdaryo, Qo‘shrabot va Nurobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Payariq (96,5 %), Paxtachi (84,9 %) va Pastdarg‘om (76,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng kichik ulush Ishtixon (14,5 %), Narpay (19,2 %), Samarqand shahar (24,0 %) va Toyloq (20,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1- mart holatiga koʻra)*

Bugungi kunda viloyatda 7 294 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 1 642 tasi (faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,5 %ni) Samarqand shahriga, 1062 tasi (14,6 %) Urgut tumaniga, 675 tasi (9,3 %) Samarqand tumaniga, 637 tasi (8,7 %) Pastdarg’om tumaniga, 443 tasi (6,1 %) Ishtixon tumaniga, 354 tasi (4,9 %) Jomboy tumaniga toʻgʻri kelmoqda.

| Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda* | Faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni, *birlikda* |
|---|---|




2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 356 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 52 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,6 %) Urgut tumanida, 50 tasi (14,0 %) Samarqand shahrida, 39 tasi (11,0 %) Kattaqoʻrgʻon tumanida, 30 tasi (8,4 %) Samarqand tumanida, 28 tasi (7,9 %) Pastdargoʻm tumanida hamda 22 tasi (6,2 %) Ishtixon tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Samarqand shahar (1 642 ta), Urgut (1062 ta), Samarqand (675 ta), Pastdargo‘m (637 ta), Ishtixon (443 ta) va Jomboy (354 ta) tumanlari qayd etildi.







2021-yilning 1- mart holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Qo‘shrabot (127 ta), Nurobod (157 ta), Paxtachi (200 ta), Narpay (206 ta), Bulung‘ur (245 ta) tumanlari hamda Kattaqo‘rg‘on (251 ta) shahrida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi Bo‘limi**
*Tel.: (66) 235-06-80*